TA'LIM JARAYONIDA ONLAYN O'QUV KURSLARINING O'RNI VA RO'LI

Abdullayev Abbos Botir o'g'li – Guliston davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Davr shiddat bilan rivojlanib, inson hayoti tobora qulaylashib bormoqda. Bugun savdosotiq qilish uchun ko'chaga chiqish shart emas: birgina mobil ilova orqali xohlagan narsangizga buyurtma berishingiz mumkin. Boshqaruv, hujjatlar almashinuvi ham virtuallashmoqda, masofadan turib turli xizmatlarni ko'rsatish ommalashmoqda. Bu o'sish va rivojlanish ta'lim sohasini ham chetlab o'tayotgani yo'q. Bugun butun dunyoda millionlab kishilar qariyb barcha sohalar: huquq, muhandislik, dasturlash, til o'rganish va boshqa yo'nalishlarda masofadan ta'lim olmoqda. Onlayn ta'lim bepulligi, hammabopligi va qulayligi bilan tobora keng yoyilmoqda.

Onlayn o'quv kurslari talabalarga uzluksiz ta'lim konsepsiyasini amalga oshirish uchun muhim bo'lgan muammolarni individual tarzda hal qilish, ularning o'z-o'zini boshqarish va mustaqil ta'lim olish kabi qobiliyatlarini shakllantirish hamda qo'shimcha mutaxassisliklarni egallashlariga yordam beradi.

Onlayn o'quv kurslarining qulayligi shundaki, ular o'rganuvchilarga o'zlari uchun qulay bo'lgan vaqtda va joyda mahoratli pedagoglar va dasturchilar tomonidan tayyorlangan o'quv materiallari (multimediali elektron o'quv adabiyotlar, interaktiv o'quv adabiyotlari, videolar, ma'ruzalar, sinov topshiriqlari) yordamida, sifatli ta'lim olish imkoniyatini taqdim etadi. Aynan mana shu xususiyatlarga ega bo'lganligi uchun, nafaqat bilim oluvchilar balki ularning ota-onalari ham farzandlarining Onlayn o'quv kurslarida ta'lim olishlarini ma'qul ko'rishmoqda.

Onlayn o'quv kursi o'z-o'zini maqsad sari yo'nltira olish qobiliyatini va irodani talab qiluvchi bilim olish usuli hisoblanadi. Ofline o'quv kursi (kunduzgi ta'lim) ko'proq vaqt va pul talab qiladi. Bundan tashqari, masofadan o'qitish ya'ni onlayn o'quv kursi uzoqda yashaydigan o'rganuvchilar yoki turli boshqa sabablarga ko'ra (masalan, kasallik, o'ziga ishonmaydigan, omma oldida o'z imkoniyatlarini to'la namoyon qila olmaydigan,…) imkoniyati cheklangan o'rganuvchilar uchun to'laqonli bilim olish imkoniyatini beradi.

Onlayn o'qitishning afzalliklariga yana quyidagilarni ham keltirib o'tish zarur: - ko'p sonli talabalarni qamrab olish - ommaviyligi;

nazariy materiallar va topshiriqlarni taqdim etishda zamonaviy va interfaol texnologiyalardan foydalanish;

moslashuvchanlig va darslarning 24/7 rejimida, istalgan joyda va istalgan vaqtda o'qish imkoniyati;

o‘zgaruvchanlik va xilma-xillik;

ma’ruzalarni takroriy tinglash imkoniyati;

nogironlar uchun onlayn kurslar orqali ta’limni davom ettirish;

o‘z sohasi bo‘yicha bilimlarini mustahkamlash va yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun mustaqil o‘rganish imkoniyati;

nafaqat sinflarda, balki talabalarning mustaqil ishlarini ham sifatli tashkil etish imkoniyati, bu masalalar kunduzgi ta’limda har doim ham doimiy va aniq nazorat qilinmaydi;

Zamonaviy avlod virtual makonda yashaydi, shuning uchun onlayn kurslar bo‘sh vaqtlarini o‘qish bilan o‘tkazish yoki boshqacha qilib aytganda ularga unga qiziqarli va kerakli joyda ta’lim olish imkoniyatini berish uchun yaxshi fikrdir. Onlayn kurslarni o‘tash bo‘lajak abituriyentlarga kasbga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha yordamni, ta’limning oldingi bosqichida boshqa yo‘nalishda o‘qitilgan magistrantlar va doktorantlarni, shuningdek barcha sirtqi talabalarni yangi ma’lumotlar bilan qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Shu bilan birga, onlayn o‘qitish o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilarining hamkorlikdagi faoliyatini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Bizning fikrimizcha yuqorida sanab o‘tilgan afzalliklarga qo‘shimcha ravishda, onlayn kurslar chet elliklarni o‘qitishda ham yordam beradi, chunki ularga umumiy auditoriyada o‘qish qiyin va o‘qituvchi ularga ko‘p vaqt ajratishining iloji yo‘q, chunki o‘qituvchi boshqa talabalarga ham vaqt ajratish kerak.

Onlayn o‘quv kurslarning yana bir turi- OOOK- Ommaviy Ochiq Onlayn Kurslar (*ingl. MOOCs- Massive Open Onlayn Courses*) bo‘lib, ularning ta'lim tizimiga kirib kelishi ilmiy jamoatchilik va ommaviy axborot vositalrida qizg‘in muhokamalar mavzusiga aylandi. OOOK - bu onlayn kurs bo‘lib, ularning alohida xususiyati talabalar uchun kursning o‘quv va nazorat-tahlil materiallariga hech qanday cheklovlarsiz kira olish imkoniyatining mavjudligidir.

Ommaviy onlayn ochiq kurslarning soni ko‘p bo‘lganligi sababli, aynan sizga kerak bo‘lgan kursni topish uchun maxsus internet servislar mavjud bo‘lib bu servislar orqali siz o‘zingiz uchun qiziqarli bo‘lgan kurslarni topishingiz mumkin.

Ommaviy ochiq onlayn kurslar o‘z ichiga 4 ta asosiy komponentani oladi. Bular quyidagilar:

1) video mashg‘ulotlar;


2) o‘qitish, nazorat va baholash mashqlari;

3) forumlar;


4) yakuniy baholash va sertifikatlar berish.

Dunyoning nufuzli universitetlari taqdim etayotgan ushbu bepul "onlayn" kurslari:


- Coursera.org – https://www.coursera.org/
- EdX – https://www.edx.org/
- Udemy – https://www.udemy.com/
- LinguaLeo – http://lingualeo.ru/
- busuu – http://www.busuu.com/enc/
- TED – http://www.ted.com



Coursera - dunyo oliygohlarining eng yaxshi ustozlari dars o'tadigan sayt. Ushbu ingliz tilidagi loyiha har xil bilimlar bosqichi bo'yicha kurs tizimlarini o'tkazadigan universitetlar bilan hamkorlik qiladi. Tinglovchilar faqatgina kurslarni o'qibgina qolmasdan, kursdoshlari bilan gaplasha oladilar, Coursera saytida testlar va imtihonlar topshiradilar. Coursera ilm-fan sohasidagi eng sara ma'lumotlarni barcha foydalanuvchilarga ochiq tarzda, shuningdek jahonning yetakchi universitetlari tomonidan yaratilgan onlayn kurslarni foydalanuvchilarga taqdim etadi. Bu mashxur saytning afzalliklaridan biri ko'plab xorijiy tillar bilan birga rus tilida ham tashkil etilganligidir.



Edx - dunyoning eng yaxshi universitetlari tomonidan taqdim etiladigan onlayn kurslar. Garvard universiteti va Massachusets Texnologiya instituti hamkorlikda "edX" nomli notijorat ta'lim uyushmasi ochgan. Maqsad – internet orqali onlayn ta'lim istiqbollarini o'rganish, universitet binosiga kelib o'qish imkoniyatiga ega bo'lmagan va iqtisodiy jihatdan nochor talabalar uchun turli bepul kurslarni tashkil etish. Hozirgi kunda bu onlayn kurs bo'yicha Garvard universiteti va Massachusets Texnologiya institutlaridan tashqari yana Kaliforniyaning Berkeley, AQSHning Texas sistemasi, Hong Kongning Politexnika hamda Kolumbiya universitetlaridan ma'ruzalar tashkil etilgan.



Udemy — informatika ixtisosligi fanlariga aloqador sohalarga oid kurslar. Udemy onlayn ochiq kursi kompyuterga aloqador sohalarga oid kurs bo‘lib, unda tashkil etilgan barcha o‘quv kurslar pullik hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan onlayn kurslar xorijiy tillarda tashkil qilinganligi sababli talabalarga qiyinchilik keltirib chiqarishi mumkin. Bu onlayn kursda darslar barcha xorijiy tillarda, shu jumladan rus tilida ham olib boriladi. Udemy onlayn kursida ma’ruzalar universitetlar professorlari tomonidan olib boriladi. Kursni tugatgan tinglovchilar maxsus sertifikat olishlari mumkin.

Bugun onlayn ochiq kurslar imkoniyatidan foydalanganlar soni bir necha million nafarni tashkil etmoqda. Dunyoning boshqa yetakchi universitetlari, ta’lim markazlari ham onlayn ta’limga katta urg‘u qaratmoqda. Ma salan, ayrim universitetlarda onlayn muhitda qimmat darsliklarni bepul o‘qish imkoniyati ham mavjud. Hozirda internetda ma’lum bir guruhlar bo‘lib ishlash imkoniyati bor. Ta’limda ham bu muhim ahamiyatga ega. Guruh bo‘lib ishlagan ma’lumotlar onlayn saqlab qolish mumkin. Ulardan keyingi yilgi talabalar ham foydalanishi mumkin. An’anaviy ta’limda esa bu imkoniyat cheklangan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, onlayn kurslar orqali ta’lim olishning samarasi yuqori. Sababi, aynan ta’lim maskaniga borib o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lmagan foydalanuvchi, bemalol masofadan turib o‘qishi, kurslardan foydalanishi, berilgan topshiriqlarni bajarishi va uni uzatishi, kamchiliklar ko‘rsatilgan holatda qayta ishlashi, kurs yuzasidan joylangan video darslarni qayta-qayta ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lishi orqali tinglovchida mustaqil ta’lim olish ko‘nikmasi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. V.S.Xamidov. «AKT va ta’lim sifatini ta’minlash» moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. T. TATU, 2016 y.
2. Массовые открытые онлайн-курсы как альтернатива современной системе образования (www.allbest.ru).
3. www.udemy.com
4. www.edX.com
5. www.coursera.com